

BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Rasulova Zohida Sindarovna

*GulDU "Boshlang'ich ta'lim metodikasi"
kafedrasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta`limda faoliyat olib borayotgan pedagoglarning vazifasi, bilim darajasi qanday bo'lishi va pedagogik faoliyatda metodlarni qo'llay olishi haqida fikr bayon etilgan. Umumta'lim maktablarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning malakalarini oshirish yo'llariga to'xtalib o'tilgan.

Tayanch so'zlar: jarayon, optimallashtirish, tadbiq etish, takomillashtirish, rivojlantirish, aql, qobiliyat, faoliyat, yangilanish, ijodiy kuch, kuzatish

Maktabdag'i o'quv jarayonining sifati ko'p omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida o'qitishning usul va metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Binobarin, ular bilimlarning ongli va chuqur o'zlashtirilishida o'quvchilardan mustaqillik va ijodiy faollikning rivojlanishiga tasir ko'rsatadi. Pedagogik amaliyotida o'qitish usullari va metodlariga juda katta mazmun to'plangan. Ularni tanlashda turli sharoitlar o'qitilayotgan fanning xarakteri bolalarining yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokazolar hisobga olinadi. Abulqosim Mahmud az-Zamaxshariyning fikricha, insonning bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi. Aql - faol, ijodiy kuchdir. Ammo dastlabki tajribasiz bilishning bo'lishi mumkin emas. Chunki aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba yo'li bilan tarkib topadi. Inson hissiy idrokni boyitish bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi. Shuning uchun ta'limda o'quvchilarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak. Metodlar va usullarni tanlash o'qituvchi darsda hal qilishi aniq bo'lgan va mo'ljallangan masalaga bog'liq bo'ladi. Chunonchi, yangi materialni bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtrishda ya'nada boshqa xil metodlar qo'llaniladi. Darsning turli bosqichlarida puxta o'yash samarali usullar hamda metodlarni tanlash juda muhimdir. Maktabdag'i o'quvchilar mustaqil fikrlariga ega bo'lishi uchun avvalo ularning tasavvurlarini hosil qilish kerakdir. Chunki tasavvursiz fikr paydo bo'lmaydi.

Bugungi kunda mamlakatimiz ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifa, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy majlisga Murojaatnomasida ilgari surilgan hayotiy muammolardan biri - ta'lim tizimini muntazam takomillashtirish, sifatli ta'lim berish yuqori malakali kadrlar tayyorlash natijasida, Yurt taraqqiyotining yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishdir¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvar kuni Oliy majlisga Murojaatnomasi

Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz a`zolarining bilimli, saviyasini oshirish uchun avvalo ilm-ma`rifat, yuksak ma`naviyat kerak bo`ladi. Bu esa ko`proq maktab ostonasidan boshlanadi. Zero Sharq donishmandlari aytganidek: “Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir!

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyotining rivojlanishi o‘qituvchidan ijodkor bo‘lishni fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olishni, yangi pedagogik texnologiyalar asosida mashg‘ulotlar olib borishni talab qiladi. Shuning uchun ham o‘qituvchining ushbu sohadagi malakalari o‘quvchi shaxsini shakillantrishning negizini tashkil etadi. Demak, o‘qituvchi ilg‘or tajribalarni to‘playdi, tahlil qiladi, ular asosida xulosalar chiqaradi. O‘z mutaxassisligi bo‘yicha bilimlarni egallaydi. O‘qituvchida pedagogik tajribalar yuqori bo‘lish, pedagogik texnologiya, o‘qitish metodlari, pedagogik texnika, o‘z-o‘zini boshqarish, muloqot madaniyati, nutq madaniyati orqali o‘quvchiga tasir qila olishi, pedagogik axloq, o‘zaro munosabat, ijobiy natijalarga erishishi kabi bilim, ko‘nikma va malakalarning namoyon bo‘lishi uning ko‘p qirrali pedagogik mahoratga ega ekanligini ko‘rsatadi. Boshlang‘ich sinflarda ta’lim va tarbiyaning zamon talabi darajasida takomillashtirishi, yoshlarning ma’naviy barkamol shaxslar bo‘lib yetishishida asosiy omillardan hisoblanadi. Buning uchun o‘qituvchilarining ilmiy, pedagogik, metodik tayyorgarligini oshirish, darslarni takomillashtirish, yangi pedagogik texnologiyalarning ta’lim jarayonida to‘laroq joriy etish, darslarni innovatsion usulda tashkil etish haqida ko‘plab fikrlar bayon etilmoqda. Shunday ekan, pedagogning ish ko‘lamini kengaytirish bugungi o‘qituvchining asosiy faoliyati sanaladi. O‘qituvchidagi intellektual salohiyat ishchanlik, mehnatsevarlik, ijodkorlik xususiyatlari ta’lim mazmunining boyishida alohida va muhim ahamiyat kasb etadi. Ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarning yangi - yangi usullarining qo‘llanilishi darslarning rang – barang, qiziqarli tarzda o‘tishda olib keladi, o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirishida ham keng imkoniyatlar yaratadi. Bu esa ta`limning integratsiyalashiviga ya`ni boshqa fanlar bilan aloqa ekanligidan dalolat beradi. Bugungi kunda ta’limning iqtisodiyligi va takomillashganligi, o‘qituvchi va o‘rgatuvchi, texnika va texnologiyalar, ta’lim iqtisodi o‘qitishni turli - tuman fikrlar bilan belgilanmoqda. “Yangilik” so‘zining qachon paydo bo‘lganligi aniq bo‘lmaseda, bu tushuncha umumiylar fanlarga, tabiiy fanlardan kirib kelganligi haqida fikrlar mavjud. Innovatsiya jamiyat paydo bo‘lishidan boshlab o‘zgarib kelmoqda. Ba’zi pedagoglar innovatsiya so‘zini tor ma’noda ta’limni takomillashtirish, zamonaviylashtirish desa, boshqalari unga kengroq tushuncha bermoqda. Ta’lim sohasidagi ayrim yangi tushunchalarning, islohati, o‘qitishni zamonaviylashtirish, takomillashtirish, optimallashtirish kabilar bilan almashtirmoqdalar.

Fransuz olimi E. Bransuik pedagogik yangilikning uch turini ko‘rsatadi:

- 1) yangilik sifatida butunlay yangi, ilgari mavjud bo‘limgan g‘oya va harakatlar yuzaga keladi;
- 2) ko‘pchilik yangiliklar ma’lum bir vaqtida, ma’lum bir muhitda g‘oya va harakatlarni moslashtirishni, kengaytirishni yoki o‘zgartirishni talab etadi.
- 3) pedagogik yangiliklar vaziyatga qarab sodir bo‘ladi. Bu yangiliklar o‘zgaruvchan talablar orqali qayta qo‘yilgan maqsad asosida ilgari mavjud harakatlarni jonlantiradi va g‘oyalarning samaradorligini ta’minlaydi.

Bu degani – dars jarayoni samarali bo‘lishi, uning pedagogik mahoratiga, kasbiy qobiliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Pedagoglarning muvaffaqiyatlari ishslashlari, o‘quvchilarga ta’lim berishlari uchun ta’lim jarayoniga yangiliklarni tatbiq etishni bilishlari shart hisoblanadi. Chunki Yangi O‘zbekistonni yaratish va uni rivojlantirish faqat ta`limga bog`liqdir. Ta`limdagi faoliyat esa pedagoglarga bevosita va bilvosita bog`liq hisoblanadi. Shunday ekan, pedagog har qanday sharoitda ham faoliyatida ilg`or tajribalardan samarali foydalanishi, uni takomillashtira olishni va tadbiq eta olishni bilishi, bu uning burchi va vazifasi bo‘lib hisoblanishi zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojotnomasi. Yangi O‘zbekiston ijtimoiy-siyosiy gazetasi. Toshkent 25-yanvar 2020-yil.
2. Xasanboyev J, To’raqulov X, Xaydarov M, Xasanboyeva O, Usmonov N. Pedagogika fanidan izohli lug’at. -T.: “Fan va texnologiya”, 2009